

ABDURAUUF FITRATNING "MUHTASAR ISLOM TARIXI RISOLASI"  
ASARI HAQIDA*Mardanova Umida Bahodir qizi**Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi  
1-kurs talabasi**Ilmiy rahbar; Bengmatov Alibek*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning "Muxtasar islom tarixi" asari va undagi asosiy mavzu va g'oyalar bilan tanishib chiqamiz. Asarda islomning kelib chiqishi, uning rivojlanish bosqichlari hamda jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yoritilgan. Abdurauf Fitrat o'z asarlarida xalqni ilmga, taffakur etishga va ma'rifatga chaqiradi. Maqolada Fitratning diniy, ma'rifiy va ijtimoiy qarashlari o'rganilib o'tilgan.

**Аннотация;** В данной статье мы знакомимся с произведением Абдурауфа Фитрата «Мухтасар ислом тарихи» и его основными темами и идеями. В работе освещается возникновение ислама, этапы его развития, а также духовно-нравственные ценности в обществе. Абдурауф Фитрат в своих произведениях призывает народ к знаниям, самостоятельному мышлению и просвещению. В статье изучены религиозные, просветительские и социальные взгляды Фитрата.

**Kalit so'zlar;** Abdurauf Fitrat, islom, ma'rifat, tarix.

**Ключевые слова:** Абдурауф Фитрат, ислам, просвещение, история

**KIRISH**

O'zbek milliy uyg'onish davrining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat xalqimizning ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan ma'rifatparvar, adib va mutafakkir hisoblanadi. Fitrat o'zining birgina asari bilan hammadan ajralib turadi. Bu "Muxtasar islom tarixi risolasi" hisoblanadi.

"Muxtasar islom tarixi" o'zbek adabiyoti va diniy tafakkuri tarixida alohida o'rin tutadi. Asarda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayoti, dastlabki islom davlatchiligi, xalifalik davrida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda islom dinining ilm-fan va madaniyatga ko'rsatgan ta'siri haqida qisqa, ammo teran fikrlar bayon etilgan. Fitrat bu risola orqali o'z xalqini diniy aqidaparastlikdan yiroq, ilmiy tafakkurga asoslangan e'tiqod sari chorlaydi. Shu bois, "Muxtasar islom tarixi" nafaqat diniy tarixiy manba, balki milliy uyg'onish davrining ma'naviy-ma'rifiy dasturi sifatida ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada asarning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va Fitratning tarixga bo'lgan qarashlari tahlil etiladi.

## ASOSIY QISM

U XX asr boshlarida yashab, o'zining ilmiy, adabiy hamda diniy faoliyati orqali millatni jaholatdan qutqarish, ilm-ma'rifatga chorlash yo'lida xizmat qilgan. Fitratning bu boradagi eng muhim diniy-ma'rifiy asarlaridan biri — "Muxtasar islom tarixi" risolasidir. Mazkur asar o'z davrida musulmon xalqlari orasida diniy bilimlar sustlashgan, islom ta'limotining asl mohiyati unutila boshlagan bir paytda yozilgan edi. Fitrat bu risolada islom tarixini qisqa, ammo mazmunan chuqur tarzda yoritib, uni xalq uchun tushunarli tilda bayon qiladi.

Fitratning «Muxtasar islom tarixi» asarini yurtimiz tadqiqotchi olimlaridan filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev o'z tadqiqotlarida o'rganib chiqib, o'sha davr islom tarixi bo'yicha asarlar yozgan Mahmudxo'ja Bexbudiy (1914), Abdulla Avloniy, Alixonto'ra Sog'uniy kabi jadidchilik namoyondalari yozgan asarlaridan Fitratning asari voqealarning aniq, jonli ifodasi, millatparvarlik ruhi tasvir qatiga singlirilgani va xolis yozilgani bilan ulardan farqlanad. Fitrat o'z risolasida islom tarixini qismlarga bo'lib o'rganadi. Bular: birinchi qism – Saodat davri; ikkinchi qism – birinchi to'rt asl halifalar davri;

uchinchi qism – ummaviylar va abbosiylar halifaligi davri. Fitrat kitobida, Muhammad (s.a.v.) davridagi islohotlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ahamiyatiga to'xtalib, ularning jamiyatdagi ijobiy ta'sirlarini ta'kidlaydi.

Fitratning fikriga ko'ra, Muhammad (s.a.v.) davrida kiritilgan islohotlar nafaqat diniy, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va tenglikni ham o'z ichiga olgan. Shuning uchun u bu davrni "saodat" davr sifatida ta'kidlaydi va musulmon jamoasining keyinchalik bu qadriyatlardan uzoqlashganini tanqid qiladi.

### Asarning mazmuni va tuzilishi

Abdurauf Fitratning "Muxtasar islom tarixi risolasi" asari nomidan ham bizga ma'lumki u asar Islom tarixini qisqa, ammo mazmunli tarzda tasvirlagan asar hisoblanadi. Asarda o'z davrida diniy va tarixiy bilimlarni ommaga ommalashtirish uchun yozilgan asar hisoblanadi. Asar boshida Islom dinining paydo bo'lishi, keyin esa uning rivojlanishini ketma ket yoritib bergan.

*1. Islomning paydo bo'lishi*

*2. Xalifalik davri*

*3. Islomning yoyilishi va madaniy yuksalish*

*4. Asarning tuzilish uslubi*

## **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Muxtasar islom tarixi” Fitratning Islom dini va uning tarixi haqidagi chuqur bilim va tushunchalarini aks ettiruvchi asar bo‘lib, u musulmon ota bobolarimizga mustabid tuzum davrida milliy o‘zlikni Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Muxtasar islom tarixi” Fitratning Islom dini va uning tarixi haqidagi chuqur bilim va tushunchalarini aks ettiruvchi asar bo‘lib, u musulmon ota bobolarimizga mustabid tuzum davrida milliy o‘zlikni Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Muxtasar islom tarixi” Fitratning Islom va uning tarixi haqidagi chuqur bilim va tushunchalarini aks ettiruvchi asar bo‘lib, u musulmon ota bobolarimizga mustabid tuzum davrida milliy o‘zlikni anglashida diniy va tarixiy ma’lumotlarni sodda va aniq shaklda yetkazishni maqsad qilgan. Ushbu asar Fitratning milliy uyg‘onish harakatiga qo‘shgan hissasining bir qismi sifatida, Islomning nafaqat diniy, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham yoritib, o‘z o‘quvchilariga yuksak ma’naviyat va madaniyatga erishish yo‘lida diniy merosni qadrlash va o‘rganishni o‘rgatadi.

## **FOYDALANILGAN ABABIYOTLAR**

1. Fitrat A. Muxtasar islom tarixi. Toshkent; “Nur” nashriyoti, 1992.
2. Maxmadaliyeva Aziza “ Muxtasar islom tarixi risolasi” maqolasi 2025
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017 yil. 124-bet
4. Hamidulla Boltaboyev. Abdurauf Fitrat. –Toshkent.: “Yoshlar nashriyot uyi”. 2022 yil. 3-bet